



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 19-fevral

VII-6-21-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Xalq deputatlari mahalliy Kengash deputatlari tomonidan o'z saylovchilari oldida axborot berish tartibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiyasining 2024-yil 31-yanvardagi "Mahalliy Kengashlar deputatlari faoliyati samaradorligini oshirish to'g'risida" 22-sonli, xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2025-yil 30-yanvardagi VII-6-11-7-0-K/25-sonli qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiyasining 2024-yil 31-yanvardagi "Mahalliy Kengashlar deputatlari faoliyati samaradorligini oshirish to'g'risida" 22-sonli xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2025-yil 30-yanvardagi VII-6-11-7-0-K/25-sonli qarorlari ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashi deputatlari tomonidan o'z saylovchilari oldida axborot berish tartibi 1-ilovaga;

-xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashi deputatlarining joriy yilning birinchi choragida saylovchilar oldida o'z faoliyati va kelgusidagi rejalari yuzasidan axborot berish reja grafigi 2-ilovaga;

-xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashi deputatlari tomonidan saylovchilar bilan o'tkazilgan uchrashuvlarda ko'tarilgan muammolarni hal etish bo'yicha chora- tadbirlar rejasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashi deputatlik guruhi rahbarlari, tuman hokimliklari bilan birgalikda, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan o'z saylovchilari oldida axborot berish bilan bog'liq tashkiliy masalalarni hal etish hamda amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni har chorak yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga taqdim etib borish vazifasi topshirilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (M.Teshayev) xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlik guruhi rahbarlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni umumlashtirish hamda aniqlangan mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida, har

chorakning yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasi muhokamasiga kiritib borishini ta'minlasin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari raislari zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani
Kengashining
2025-yil 19-fevraldagi
VII-6-21-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashi deputatlari
tomonidan o'z saylovchilari oldida axborot berish
TARTIBI**

1-bob. Umumiy qoidalar.

1. Mazkur tartib O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi va "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatining saylovchilarga o'z faoliyati to'g'risida axborot berishining tartib-taomillarini belgilaydi.

2. Deputatning saylovchilarga o'z faoliyati to'g'risida axborot berishidan asosiy maqsad – uning o'z saylovchilari oldidagi mas'uliyatini va hisobdorlik hissini oshirish, deputatlik faoliyatining ochiqqligini, aholining xabardorligini kuchaytirish va pirovardida xalqning vakillik organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashdan iborat.

3. Deputat vaqti-vaqti bilan, lekin yiliga kamida to'rt marta saylovchilarga o'z faoliyati to'g'risida axborot beradi.

2-bob. Deputat faoliyati to'g'risidagi axborot berishni tashkil etish.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan har chorakning birinchi sessiyasida deputatlarning saylovchilar oldida o'z faoliyati to'g'risida axborot berishi bo'yicha Rejagrafigi muhokama qilinadi va tasdiqlanadi.

Reja-grafik har bir deputatning taklifiga binoan xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati tomonidan shakllantirilib, unda axborot beriladigan hudud va vaqt ko'rsatiladi.

Deputatlar o'z xohishiga ko'ra saylovchilar oldida o'z faoliyati to'g'risida Rejagrafikdan tashqari ham axborot berishi mumkin.

5. Tasdiqlangan Reja-grafik xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati tomonidan siyosiy partiyalar va mahalliy ijroiya hokimiyati organlariga yuboriladi.

6. Deputat saylovchilarga o'z faoliyati to'g'risidagi axborotini berishni tashkillashtirish maqsadida uning iltimosiga ko'ra ijro etuvchi hokimiyat organlari bino ajratilishini tashkil etadilar, saylovchilar bilan uchrashuv o'tkaziladigan joy va vaqt haqida fuqarolarga xabar beradilar, uchrashuvda ishtirok etish uchun deputatning taklifiga binoan o'zlarining mas'ul vakillarini yuboradilar.

7. Mahalliy ijroiya hokimiyati organi:

deputatning o'z saylovchilari bilan uchrashuvini o'tkazishi uchun saylovchilar kelishiga qulay bo'lgan joy ajratilishni ta'minlaydi.

deputatning o'z saylovchilari oldida axborot berishi to'g'risida ushbu deputat saylangan hududidagi mahalla fuqarolar yig'inlarini uchrashuvdan kamida yetti kun oldin yozma ravishda ogohlantiradi.

8. Mahalla fuqarolar yig'ini raislari tomonidan uchrashuv haqida o'z hududida istiqomat qiluvchi saylovchilarga deputat axborot beradigan joy va vaqt haqida uchrashuvdan kamida uch kun oldin e'lon qilinadi.

9. Deputatning saylovchilar bilan uchrashuv o'tkazish joyi va vaqti haqidagi ma'lumotlar hududdagi ommaviy axborot vositalarida, siyosiy partiyalarning hamda xalq deputatlari tuman Kengashining va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida, shuningdek, deputatning ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy sahifalarida e'lon qilib borilishi mumkin.

10. Deputat saylovchilar bilan uchrashuvda o'z faoliyati to'g'risidagi axborotning mazmunidan kelib chiqqan holda hududdagi tegishli davlat organlari va tashkilotlariga ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha mas'ul xodimlar ishtirokini ta'minlash haqida xat yuboradi.

3-bob. Deputatning o'z faoliyati to'g'risidagi axborotiga qo'yiladigan talablar

11. Deputat axborotidagi ma'lumotlar ishonchli va asoslangan bo'lishi, barcha uchun tushunarli, sodda hamda ravon tilda berilishi talab etiladi.

Deputatning axborotida statistik ko'rsatkichlar, foto va video materiallar o'rin egallashi mumkin.

12. Deputatning o'z faoliyati to'g'risidagi axborotida quyidagilar bo'lishi mumkin:

- deputatning saylovoldi dasturi ijrosi yuzasidan qilingan ishlar;

- mahalliy davlat hokimiyati organlariga yuborilgan deputat so'rovlari, murojaatlar hamda ularning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlar;

- xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasida hududiy davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobot (axborot)larini eshitish va eshituv yakunlari bo'yicha erishilgan natijalar haqidagi ma'lumotlar;

- hududdagi davlat organlari va tashkilotlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlar;

- norma ijodkorligi faoliyati to'g'risidagi axborot.

13. Deputat axboroti qoida tariqasida davlat tilida beriladi, agar u saylangan hudud aholisining katta qismini boshqa millat vakillari tashkil etgan taqdirda o'sha hudud aholisi so'zlashadigan tilda ham bo'lishi mumkin.

4-bob. Deputatning saylovchilar oldida o'z faoliyati to'g'risidagi axborotini berish tartib-taomillari

14. Deputatning o'z faoliyati to'g'risida axborotini berish jarayonida saylovchilar, o'zi nomzod etib ko'rsatilgan siyosiy partiya vakillari, shuningdek, uning taklifi bilan hududdagi davlat organlari va tashkilotlari hamda fuqarolarning

o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari, jamoatchilik vakillari, OAV va boshqalar ishtirok etishlari mumkin.

15. Deputat saylovchilarga axborot berishni boshlashdan oldin uchrashuvda ishtirok etayotgan shaxslar haqida ma'lumot beradi hamda uchrashuv bayonnomasini yuritish uchun vakil tayinlaydi.

Uchrashuvda qayd etilgan har bir masala bayonnomaga kiritib boriladi hamda yig‘ilishdan so‘ng deputat tomonidan tasdiqlanadi.

16. Deputat axborot berish jarayonida o‘zi saylangan hududdagi mavjud muammolarni hal etish choralarini ko‘rish bo‘yicha ishtirok etayotgan tegishli davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining fikrini eshitadi hamda muammolarni bartaraf etish choralarini muhokama qiladi.

Deputat axborotini eshitish davomida saylovchilar o‘z hududidagi dolzarb muammolar yuzasidan fikr bildirishlari va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif berishlari mumkin.

17. Uchrashuv davomida saylovchilar tomonidan ko‘tarilgan muammo aholining moddiy, ijtimoiy, iqtisodiy va shu kabi boshqa holatlari bo‘yicha qayd etilganda, shuningdek, zudlik bilan chora ko‘rilishi talab qilinadigan holatlarda deputat tegishli davlat organi va tashkilotiga (uning mansabdor shaxsiga) “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunga asosan deputat so‘rovi yoki murojaat yuboradi.

5-bob. Uchrashuvda saylovchilar tomonidan ko‘tarilgan masalalarni xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritish va ularning ijrosini nazorat qilish

18. Deputat tomonidan tasdiqlangan bayonnoma xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga taqdim etiladi.

Deputatlar taqdim etgan bayonnomalar xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati tomonidan tahlil etilib, xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasi majlisiga kiritilishi mumkin bo‘lgan muammoli masalalar sohalar kesimida ajratilgan holda yig‘iladi. Bunda har bir oy uchun alohida ma'lumot shakllantiriladi.

19. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati yig‘ilgan muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha Kengash qarori va chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi hamda tasdiqlash uchun belgilangan tartibda Xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi muhokamasiga kiritilishini tashkil qiladi.

20. Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qabul qilingan qaror ijro qilish uchun o‘n kunlik muddatda tegishli davlat organlari va tashkilotlariga ro‘yxat asosida yuboriladi.

21. Tegishli davlat organlari va tashkilotlari qarorda belgilangan topshiriq ijrosi bo‘yicha ko‘riladigan zarur choralar va amalga oshiriladigan ishlar haqida xalq deputatlari tuman Kengashiga ma'lumot kiritib boradi.

22. Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori bilan mas'ul etib belgilangan xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyasi va deputatlar davlat organlari va tashkilotlari tomonidan uning ijro etilishi bo‘yicha nazoratni amalga oshiradi.

23. Deputatlar tomonidan axborot berish jarayonida aniqlangan muammoli masalalar viloyat yoki respublika darajasida hal etilishi talab etilgan taqdirda, xalq

deputatlari tuman Kengashi bu haqida tegishincha xalq deputatlari viloyat Kengashiga yoki Oliy Majlis palatasining shu hududdan saylangan deputat va senatorlariga murojaat qilishi mumkin.

Xuddi shuningdek, xalq deputatlari viloyat Kengashi respublika darajasida hal etilishi talab etiladigan masalalar bo'yicha Oliy Majlis palatasining shu hududdan saylangan deputat va senatorlariga murojaat qilishi mumkin.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

24. Deputatning o'z faoliyati to'g'risidagi axboroti ommaviy axborot vositalarida, siyosiy partiyalarning hamda xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilib boriladi.

25. Saylovchilar deputatning o'z faoliyati to'g'risidagi axborotidan qoniqmagan taqdirda, deputatni chaqirib olish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xalq deputatlari tuman Kengashiga yoki siyosiy partiyalarga murojaat qilishlari mumkin.

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2025-yil 19-fevraldagi
VII-6-21-7-96-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashi deputatlarining joriy yilning birinchi choragida saylovchilar oldida o'z
faoliyati va kelgusidagi rejalari yuzasidan axborot berish
REJA-GRAFIGI**

№	F.I.Sh.	Saylamgan okrug nomi	Saylovchilar bilan o'tkaziladigan uchrashuv vaqti va joyi	Uchrashuvni tashkil etish uchun ma'sullar va ishtirok etuvchilar
1	Niyazova Maryam Kadirovna	1-Omonboy	40-maktab binosi 01.04.2025-yil	Tuman hokimligi, tegishli tashkilot vakillari (kelishilgan holda), MFY faollari hamda siyosiy partiyalarining hududiy Kengashlari rahbarlari, OAV vakillari
2	Xudayberdiyev Alisher Aktamovich	2-Katta-arab	39-maktab binosi 01.04.2025-yil	
3	Xusanov Ubaydullo Shokirovich	3-Omonkalxat	47-maktab binosi 02.04.2025-yil	
4	Djo'rayev Ro'zimurod Bozorovich	4-Qoradaryo	47-maktab binosi 02.04.2025-yil	
5	Qodirova Marxabo Eshpulatovna	5-Polvontepa	35-maktab binosi 02.04.2025-yil	
6	Mardanov Ibodullo Xushniyozovich	6-Mullatog'ay	Mullatog'ay MFY binosi 03.04.2025-yil	
7	Baxtiyorov Sodiq Sobir o'g'li	7-Kadan	Kadan MFY binosi 03.04.2025-yil	
8	Razzoqov Hotam Anvarovich	8-Chag'atoy	Chag'atoy MFY binosi	

№	F.I.Sh.	Saylamgan okrug nomi	Saylovchilar bilan o'tkaziladigan uchrashuv vaqti va joyi	Uchrashuvni tashkil etish uchun ma'sullar va ishtirok etuvchilar
			03.04.2025-yil	
9	G'ulomov Rustam Toshpo'lotovich	9-Tarnov	6-maktab binosi 04.04.2025-yil	
10	Ubaydullayev Doston Ergash o'g'li	10-Yodgorxo'ja	2-son politexnikum binosi 04.04.2025-yil	
11	Irgashev Abduvali Aktamovich	11-Ulug'bek	Mirzo Ulug'bek MFY binosi 04.04.2025-yil	Tuman hokimligi, tegishli tashkilot vakillari (kelishilgan holda), MFY faollari hamda siyosiy partiyalarining hududiy Kengashlari rahbarlari, OAV vakillari
12	Barakayeva Mavluda Damirovna	12-Madaniyat	1-maktab binosi 05.04.2025-yil	
13	Xolova Maksuda Asatovna	13-Kichikmundiyon	17-maktab binosi 05.04.2025-yil	
14	Tilovov Saydali Akram o'g'li	14-Tavaron	Qirg'iz MFY binosi 05.04.2025-yil	
15	Nasriddinov Jamshid To'liqinovich	15-Burgan	105-maktab binosi 07.04.2025-yil	
16	Nigmatov Xusnidin Rashidovich	16-Moybuloq	63-maktab binosi 07.04.2025-yil	
17	Abduraxmonov Jasur Bekpulatovich	17-Andoq	83-maktab binosi 07.04.2025-yil	
18	Teshayev Muhiddin Xoliqulovich	18-Vayrot	30-maktab binosi 08.04.2025-yil	
19	Jo'rayev Kamoliddin Boymurodovich	19-Qo'shtepa	29-maktab binosi 08.04.2025-yil	
20	Suyunov Elbek Norbekovich	20-Yangiqo'rg'oncha	7-sonli madaniyat uyi 08.04.2025-yil	

№	F.I.Sh.	Saylamgan okrug nomi	Saylovchilar bilan o‘tkaziladigan uchrashuv vaqti va joyi	Uchrashuvni tashkil etish uchun ma’sullar va ishtirok etuvchilar
21	Achilov Kamol Rashidovich	21-Suv hovuzi	3-son politexnikum binosi 09.04.2025-yil	
22	Raximov Ergash Xoshimovich	22-Kattako‘rpa	55-maktab binosi 09.04.2025-yil	
23	Mirzaxonova Dilorom Bakirovna	23-Mullakichkina	51-maktab binosi 09.04.2025-yil	
24	Sadriddinov Aziz Aktamovich	24-Kattaming	Valijon MFY binosi 10.04.2025-yil	Tuman hokimligi, tegishli tashkilot vakillari (kelishilgan holda), MFY faollari hamda siyosiy partiyalarining hududiy Kengashlari rahbarlari, OAV vakillari
25	Rabbimov Dilshod Raxmonovich	25-Mo‘minxo‘ja	25-maktab binosi 10.04.2025-yil	

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani
Kengashining
2025-yil 19-fevraldagi
VII-6-21-7-96-K/25 -son qaroriga
3-ilova

NAMUNA

**Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashi deputatlari tomonidan
saylovchilar bilan o'tkazilgan uchrashuvlarda ko'tarilgan muammolarni hal
etish bo'yicha**

CHORA-TADBIRLAR REJASI

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Nazorat uchun mas'ul	Mas'ul ijrochilar
I. Ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari					
1.					
2.					
II. Transport, sanoat va qurilish yo'nalishida va avtomobil yo'llari sohasidagi masalalari					
1.					
2.					
III. Aholiga sifatli kommunal xizmat ko'rsatishni ta'minlash masalalari					
1.					
2.					
IV. Aholini ijtimoiy himoya qilish, yashash sharoitlarini yaxshilash, bandligini ta'minlash va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish yo'nalishida					
1.					
2.					
V. Obodonlashtirish, ekologiya va mahallalar infratuzilmasini yaxshilash masalalari					
1.					
2.					